

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA
MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA MUSIQIY FAOLIYATLARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI.**

Ruziyeva Orzigul Ilyasovna

*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti katta o'qituvchisi*

Abduvaliyeva Dinora

*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti musiqiy ta'lim talabasi*

Anotatsiya: Musiqa har doim bolaga hamroh bo'ladi. Musiqiy asarlar namunalarini tinglash, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro qilishni o'rgatish va ohangda raqs harakatlarini bajarish maktabgacha yoshdagi bolalarning idrokini va fikrlashini rivojlantiradi.

Аннотация: Музыка всегда сопровождает ребенка. Прослушивание образцов музыкальных произведений, обучение детей игре на музыкальных инструментах и выполнение танцевальных движений под мелодию развивают восприятие и мышление дошкольников.

Abstract: Music always accompanies a child. Listening to samples of musical works, teaching children to play musical instruments and performing dance movements to the tune develop the perception and thinking of preschool children.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologlar musiqani bolalarning shaxsiyati shakllanishida va aql-zakovatini rivojlantirishga ta'sirini kuchliligini ta'kidlashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida musiqa mashg'ulotlari bolalarda tovushlardan yaralgan tasvirni his qilish qobiliyatini yaratadi. Fikrlash qobiliyatlari, nutqni rivojlantirish, faol tasavvurlar muntazam ravishda musiqa mashg'ulotlari jarayonida bolalarda kichik yoshdan boshlab turli shakllarda rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy tarbiyasi musiqa mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladi va "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlari" asosida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqa mashg'ulotlarining maqsadi bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga muvofiq jismoniy va psixo-emotsional fazilatlarini har tomonlama rivojlantirish orqali bolalarni san'atga jalb qilishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari bolalarning qobiliyatlarini (harakatlarning xilma-xilligi, muvofiqlashtirish), diqqatni jalb qilish, nutq ko'nikmalarini (qo'shiq aytish, maxsus atamalarni faol lug'atiga qo'shish), jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishi aniq. Musiqa mashg'ulotlari – MTTda musiqiy ta'limning asosiy shakli hisoblanadi. Ta'limning muvaffaqiyati musiqiy ta'limni tashkil etish shakllariga bog'liq.

Integratsiyalashgan faoliyat. Bunday mashg'ulotlarning maqsadi mavzuni bir necha faoliyat turlari: musiqa va nutq, musiqa va bilim izlanishlari va hokazolarda ochib berishdan iborat. Bunda AKT tez-tez ishlatiladi: taqdimotlarni ko'rish, interfaol doska, kompyuterlardan foydalanish. Integratsiyalashgan faoliyatga misollar: katta guruhda "musiqa matematika" (bolalarning musiqiy va matematik qobiliyatini rivojlantirish: geometrik shakllar bilan musiqa asboblari shaklini o'xshatish, badiiy harakatlarni amalga oshirish va hisoblash uchun o'yin vazifalari), "tabiat musiqa" (musiqa va uning atrofidagi dunyoni o'zaro anglash, ko'rish uchun o'rganish: tabiiy materiallardan tayyorlangan asboblarni o'rganish (toshlardan, yong'oq, urug', yog'och), "musiqa va cholg'u kuyi" (musiqiy cholg'ularda ijro etilgan audio yozuvlar tinglash).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari bolalar uchun tarbiyaviy ishlarning asosiy shakli bo'lib, unda bolalar asosiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar, musiqa mashg'ulotlarida bolalar musiqa faoliyatining har xil turlari: tinglash, kuylash, musiqa va ritmik harakatlar va bolalar cholg'u asboblari chalish o'rgatiladi. Musiqiy faoliyatlar bolalarning e'tiborini, diqqatini va irodali harakatlarini talab qiladi. Mashg'ulot jarayonida musiqa rahbari bolalar diqqatini bir faoliyat turidan ikkinchisiga mohirlik bilan o'tkazib borishi kerak.

Musiqa mashg'ulotlarida bolalarda quyidagi ijobiy xususiyatlar shakllantiriladi:

- mashg'ulotlar bolalarni birgalikdagi harakatlarini quvonchli, estetik tajribalar bilan birlashtiradi;
- axloqiy madaniyatni o'rgatadi;
- aqliy harakat, tashabbuskorlik, ijodkorlikning namoyon bo'lishiga hissa qo'shadi.
- olingan bilim va ko'nikmalar asosida mustaqil musiqiy faoliyat yanada faollashadi;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishda quyidagi talablarni hisobga olish kerak:

1. Aqliy faoliyat, ko'p diqqat, e'tibor talab qiladigan vazifalar mashg'ulot boshida bolalarga berilishi kerak.
2. Qo'shiq aytishdan oldin murakkab jismoniy mashqlarni bajarish tavsiya etilmaydi, chunki ular nafas olish ritmini buzadi va yuqori sifatli qo'shiq aytishga xalaqit beradi.

Mashg'ulot oxiriga kelib harakatlar jadalligini va umumiy yuklamani kamaytirish kerak. Faoliyat xarakteri bolalarda turli hissiyotlarga sabab bo'ladi. Qiziqarli o'yin faollikni oshiradi, shuning uchun uni dars boshida emas, balki murakkab vazifalarni bajargandan so'ng o'tkazish yaxshidir. O'qitish amaliyotida turli faoliyat turlarini shunday ketma-ketlikda tarqatish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- a) darsning kirish qismida ko'pincha mashg'ulot xarakteridagi kichik musiqiy-ritmik mashqlar beriladi (raqsning alohida elementlari, yangi raqs uchun zarur bo'lgan

tuzilmalar, davra raqsi, bayram sayli). Bu harakatlar bolalar diqqatini rivojlantiradi va ularni qiyinroq vazifalarga tayyorlaydi;

b) mashqlardan so'ng bolalar o'tirib, musiqa tinglaydilar va kuylaydilar. Qo'shiq kuylash turli vokal mashqlarini o'z ichiga oladi, ijodiy topshiriqlarni bajarish, musiqiy eshitishni rivojlantirish mashqlari, 2-3 qo'shiqni o'rganish;

v) mashg'ulotning keyingi bosqichi o'yin, qiziqarli raqs, davra raqsi ko'rinishidagi musiqiy va ritmik faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.I.Ruziyeva „Bolalarning musiqiy ta'limi” O'quv qo'llanma. Qarshi. „Intelekt” nashriyoti 2023 .
2. Muhiddin Abdullayev, Husniddin Tursunov . „Maktab repertuari “ O'quv qo'llanma Qarshi „Nasaf” NMIU 2022.
3. Muhiddin Abdullayev „ Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi ” „Nasaf” NMIU 2024
4. Yo'ldoshev SH., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari - Toshkent, Fan, 2001 yil.
5. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Ta'lim sohasida innovatsion texnologiya. Toshkent, - Fan, 2008 yil.
6. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2004 yil.
7. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Musiqa San'atning Pedagogik Shakllanish Jarayonlari." *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends* 2.5 (2024): 58-62.
8. Isomovich, T. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 7(5), 93-99.

9. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "XX ASRDA O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA TUB BURILISH, YOHUD IJROCHILIK USLUBINI YANGI SHAKLI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 20.5 (2024): 27-31.
10. Isomovich, Tursunov Xusniddin. "O 'ZBEKISTONDA MUSIQA PEDAGOGIKASINING DAVRLAR ARO RIVOJLANISHI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 7.5 (2024): 93-99.
11. Isomovich, Tursunov Husniddin. "Historical Pedagogical Content And Characteristics Of Dutor Instrument Performance." *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments* 2.5 (2024): 310-316.